

INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O'RGANUVCHI TALABALARDA FRAZEOLOGIK PRAGMATIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Abbasova Nargiza Kabilovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yusupova Nodiraxon Erkinjon qizi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali,
ingliz tili o'qituvchisi

E-mail: binafshatoshtemirova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari, jumladan frazeologizmlar asosida ruhiy holat, vaqt, tashqi ko'rinish, o'lim, tug'ilish kabi tushunchalarning ifodalanishi ingliz va o'zbek tillari misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, lisoniy vaziyat, nutqiy jarayon, pragmalingvistika, frazeologiya.

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tushunchasiga nisbatan 2 xil, keng va tor, yondashuvlar mavjud. Bu tushunchani keng ma'noda tahlil etuvchi olimlar (A.V. Kunin, V.N. Telia va N.M. Shanskiy) frazeologik birliklar qatoriga nafaqat iboralarni, balki gaplar, maqollar va hikmatli so'zlarni ham kiritadilar. Bunday birliklarga nisbatan tor yondashuvchi tilshunoslari (V.M. Mokienko, A.V. Zhukov va A.V. Vinogradov) frazeologizmlarni faqatgina ma'no jihatdan bir so'zga teng turg'un birikmalar sifatida ko'rganlar va ular ham erkin so'z birikmalaridan turg'un birikmalarni farqlab tasnif etgan. O'z nazariyalarini asoslash uchun quyidagi misollarni keltirganlar. Misol uchun, "white snow", "black pen" kabi so'z birikmalarini aloqa jarayonida alohida so'zlardan hosil bo'luvchi erkin so'z birliklari deya nomlashgan. Lekin "black market", "white lie" kabi birliklar nutqga tayyor holatda olib kiriluvchi, suhbat jarayonida har bir tarkibiy qismi o'zgarishsiz saqlanadigan turg'un birikmalardir.

Frazeologik birliklar filologiya sohasida turli yo'nalishlar negizida tadqiq etilgan. Ularning orasida pragmalingvistik o'rganishlar ahamiyatli bo'lib, tadqiqotlar natijasi ko'plab mulohazalarga sabab bo'lgan. Tilshunos olim M. Hakimov o'zining "O'zbek pragmalingvistikasi asoslari" nomli asarida "kommunikativ nutqni ifodalash strategiyasi lingvistik pragmatikaning bosh masalasi hisoblanadi. So'zlovchi bunda o'z ichki maqsadini tinglovchiga bayon qilish uchun u yoki ifoda usulini tanlaydi" [1] deb

yozadi. Frazeologizmlar turli kontekslarda so‘zlovchilar tomonidan o‘z maqsadlarini, jumladan, ruhiy holatlarini ifoda etish, tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish, ichki munosabatlarini namoyon etish uchuTin qo‘llaniladi.

Frazeologik birliklar asosida ruhiy holatni ifodalash.

Baxtiyorlik. Tadqiqotimizning asosiy obyekti hisoblangan ingliz va o‘zbek tillaridagi barqaror birliklarni tadqiq etish mobaynida har ikki tilda ruhiy holatni ifodalovchi frazeologik birliklar bir talay ekanligiga amin bo‘ldik. Jumladan, o‘zbek tilida “do‘ppisini osmonga otmoq”, “og‘zi qulog‘ida”, “osmonga sakramoq”, “boshi ko‘kka yetmoq”, “o‘zini yettinchi osmonda his qilmoq”, “og‘zining tanobi qochmoq” kabi iboralarni pragmalingistik nuqtai nazardan tahlil qilish natijasida ular asosan nutqda yaxshi kayfiyatni ifodalash uchun ishlatilishi kuzatiladi. Ingliz tilida ham ayni shu ma’noni ifodalovchi frazemalar mayjud: on cloud nine, like a dog with two tails, full of the joys of the spring, happy as Larry, on top of the world, over the moon, in seventh heaven.... Mazkur frazeologik birliklar bir xil leksema (happy) ma’nosiga teng bo‘lsada, konteksda qo‘llanilganda turli qo‘srimcha ma’nolar (intensifikatorlik) ni anglatadi. Misol uchun,

- Was Helen pleased about getting that job? (Helen ish olganidan xursand edimi?)
- Pleased? She was on cloud nine. (Xursand? U yettinchi osmonda edi.)

Yuqorida keltirilgan dialogda so‘zlovchi shunchaki xursand (pleased) so‘zining o‘rniga “on cloud nine” (yetinchi osmonda) frazeologik birligini qo‘llashni afzal bildi. Buning asosiy sababi ma’noni kuchaytirish, tasviriy jihatdan bo‘yoqdorlikni oshirishdir.

G‘amginlik. Frazeologik birliklar yaxshi kayfiyatni ifodalash kabi pragmatik vazifani ifodalabgina qolmay, so‘zlovchining tushkunligi, yomon kayfiyatda ekanligini ham ifodalash uchun ishlatilishi mumkin. O‘zbek tilidagi “qovog‘idan qor yog‘moq”, “ko‘ngli xira bo‘lmoq”, “o‘z yog‘iga o‘zi qovurilmoq”, “qovog‘ini uymoq”, “ta’bi tirriq”, “tabiatli tirriq bo‘lmoq”, “ta’bi xira”, “ta’bi xiralashdi”, “ta’bi namozshom”, “tabiatini xira qilmoq”, “ko‘ngli sinmoq” iboralari so‘zlovchining tushkun kayfiyatini turli darajada ifoda etadi. Ingliz tilida esa “face like a wet weekend”, “down in the mouth”, “feel blue”, “to have the blues”, “reduce to tears”, “cry one’s eyes”, “down in the dumps”, “broken-heated”, “a heavy heart”, “take something hard” kabi bir qator frazemalar orqali so‘zlovchilarning yomon kayfiyatda ekanligi tasvirlanishi mumkin.. Masalan,

- What is the matter? You look a bit down in the dumps today. (Nima gap? Bugun biroz hafa ko‘rinasiz.)
- No, everything is fine. (Yo‘q, hammasi yaxshi.)

Pragmatik qarashlarga asosan, so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabat va ayni shu vaqtgagina xos bo‘lgan holatlar (lisoniy vaziyat) natijasida muloqot jarayoni

yuzaga keladi. Yuqoridagi misoldan ham ko‘rishimiz mumkinki, so‘zlovchi tinglovchining yuz ifodasidan uning xafa ekanligini xulosa qildi va bu haqida so‘radi, bu nutqiy jarayon esa ikki muloqot ishtirokchisi orasida munosabat yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Qo‘rquv. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazelogik birliklarni pragmalingistik xususiyatlarini tadqiq etish davomida har ikki tilda qo‘rquv ma’nosini ifodalovchi bir qancha iboralarni qiyosiy o‘rgandik. Misol uchun, o‘zbek tilida “o‘takasi yorilmoq”, labiga uchiq toshmoq”, “kapalagi uchib ketmoq”, “qalbi vahimaga tushmoq”, “oyoqlari qaltiramoq”, “ayoq-qo‘li muzlab qolmoq”, “yuragi bo‘g‘ziga tiqilmoq”, “yuragini hovuchlab”. “Ingliz tilidagi “afraid of one’s own shadow”, “make your blood run cold”, “scare someone out of their wits”, “scared stiff”, “shake like a leaf” kabi iboralar ham so‘zlovchining qay darajada qo‘rquvga tushganligini bildiradi. E’tiborli jihat shundaki, mazkur iboralar orasida biri ikkinchisiga metaforik ma’no jihatdan juda o‘xhash iboralar mavjud. Masalan, ingliz tilidagi “scared stiff” idiomasi o‘zbek tilidagi “qo‘rquvdan tosh qotmoq” idiomasi bilan tarjima jarayonida ham muqobililikni saqlab qoladi, chunki ularda ham metaforik, ham leksik-semantik o‘xhashlik mavjud.

Hayajon. Insonlarning hayajonga oid his tuyg‘ulari turli tillarda turli frazeologik birliklar bilan ifodalanadi. Misol uchun, o‘zbek tilida “o‘zini qayoqqa urishini bilmaydi”, “o‘zini qayerga qo‘yishni bilmaydi”, “o‘zini qo‘ygani joy topa olmaydi”, “o‘zini yo‘qotib qo‘ydi”, “yuragi to‘xtab qolgudek bo‘lmoq”, “yuragi qinidan chiqib ketgudek bo‘lmoq”, “yuragi dov bermay”, “yuragi shuv etib ketmoq” kabi bir qator iboralar mavjud, va ular so‘zlashuv va badiiy nutqda keng qo‘llaniladi. Ingliz tilida “heart misses a beat”, “hold your breath”, “can’t stand the pace”, “butterflies in one’s stomach”, “on the edge of one’s seat”, “tongue tied” kabi idiomatik ifodalar so‘zlovchilar nutqini boyitish uchun xizmat qiladi.

Hurmat. “Hurmat” kategoriyasi ham ingliz va o‘zbek tillarida bir qator lisoniy unsurlar bilan ifodalangani kabi, frazeologizmlar bilan nutqda izzat-xurmat ma’nosini bildiradi. “O‘tqazgani joy topa olmaydi”, “boshiga ko‘tardi”, “soyasiga ko‘rpacha soldi”, “so‘zini ikki qilmaslik”, “ko‘zlariga tik qaramaydi” kabi iboralar o‘zbek tilida (asosan, badiiy va so‘zlashuv nutqida) hurmat ma’nosini bildiradi. Misol uchun, “Ota esa ularni erkalab bag‘riga bosadi. Yana dasturxon boshida hammasi jamuljam o‘tirishadi. Ota bolalariga tikiladi. Uning ko‘zlariga hech kim tik qaramaydi. U uzoq hayollarga cho‘madi...” Mazkur matnni lingvokulturologik jihatda tahlil etilganda, o‘zbek xalqi madaniyati, urf-an’ analariga ko‘ra yoshi kattalar ko‘zlariga tik qaramaslik hurmat belgisi hisoblanadi. Ingliz tilidagi “hats off to”, “think the world of”, “abide by something”, “look up to”, “better bow than break” kabi iboralar bor. “Hats off to” iborasi ham ingliz xalqi lingvomadaniy xususiyatlarini ochib bera oladi, chunki mazkur ibora “kimgadir shlyapasini ko‘tarmoq” deb so‘zma-so‘z tarjima qilinishi mumkin.

“Hat” (shlyapa) leksemasi ingliz madaniyatiga xos bo‘lgan tushuncha (realia) hisoblanadi. Masalan, “Hats off to everyone in the marketing department for organizing this event. (Bu tadbirni tashkil etgan marketing bo‘limidagi barcha insonlarga hurmat bildiramiz.)”

Hurmatsizlik. Leksik va morfemik sathda bo‘lganidek, antonimiya frazeologik sathda ham o‘zini namoyon etadi. Yuqorida biz frazemalar orqali hurmat ma’nosini ifodalanishini tahlil etgan bo‘lsak, endi hurmatsizlik ma’nosini beruvchi frazemalarni ko‘rib chiqamiz. O‘zbek tilida “bir pul bo‘ldi”, “bir paqir bo‘ldi”, “bir chaqalik”, “yuziga oyoq qo‘ydi”, “yuziga loy chapladidi”; ingliz tilida “cut to the quick”, “smart mouth”, “cold shoulder”, “slap in the face”, “cheap shot” kabi frazeologik birliklar orqali nutqda hurmatsizlik ma’nosi ifodalanadi.

Kibr. O‘zbek tilida kibr, kibrlangan kabi leksik ma’nolarni anglatish uchun turli frazeologik birliklardan foydalaniladi. “O‘ziga bino qo‘ygan”, “o‘zidan ketgan”, “burni osmonda”, “burni ko‘tarilgan”, “burni osmonga ko‘tarilgan”, “dimog‘i shishdi”, “dimog‘i ko‘tarildi” kabi frazeologizmlar shular jumlasidandir. Ingliz tilida ham manashu leksik ma’noni anglatuvchi bir qator iboralar (proud as Lucifer, a cut above, cock of the walk, chest-beating, as if you owned the place, come/get (down) off your high horse) so‘zlovchilar nutqida keng qo‘llaniladi.

Loqaydlik. “Parvoyi falak”, “parvoyiga keltirmaslik”, “dunyonи suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydi”, “tepsa, tebranmas” kabi frazemalar nutq ishtirokchilarining loyadlik, beparvolik kabi kayfiyatlarini ifodalash uchun ishlataladi. Ingliz tilidagi “as cold as stone”, “beside the point”, “asleep at the wheel”, “no great shakes” yuqoridagi ma’noda qo‘llaniladi.

Shuningdek frazelogik birliklar pragmatik xususiyatlari qatoriga **uddaburonlik** (“pixini yorgan”, “tegirmonga tushsa, butun chiqmoq”), **g‘azab** (“qahri keldi”, “tonini teskari kiymoq”, “quti uchdi”, “sochi tikka bo‘ldi”), **ehtiyotkorlik** (“qirq marta o‘lchab, bir marta kesadi”, “yetti marta o‘lchab, bir kesmoq”, “qattiqni ham puflab ichmoq”), **birdamlik** (“Bir jon-bir tan bo‘ldi”, “bosqlarini bir joyga qovushtirdi”, “fikrlari bir yerdan chiqdi”, “gapi bir joydan chiqdi”) kabi pragmatik ma’nolarni kiritishimiz mumkin.

Frazeologik birliklar orqali ruhiy holatlar bilan birga **vaqt-yosh** kategoriyalari ham ifodalanishi mumkin. Misol uchun, o‘zbek tilida “bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda”, “bo‘yi yetdi”, “og‘zidan ona suti ketmagan”, “og‘zidan sut hidi keladi”, “balog‘atga yetdi”, ingliz tilida “coming of age”, “I was not born yesterday”, “one foot in the grave”, “you can’t teach an old dog new tricks”, “a spring chicken”, knee-high to a grasshopper” va hakozo. **Tashqi ko‘rinish** (“bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday”, “eti suyagiga yopishgan”, “terisi suyagiga yopishgan”; “cut a dash”, “dressed to kill”, “down at heel”, “not a hair out of place”, “all skin and bone”, “look

like a million dollars), **oilaviy holat** (“boshi ikkita bo‘ldi”, “bir yostiqqa bosh qo‘ymoq”, “bosqlarini qovushtirmoq”, “dunyodan toq o‘tdi”, “erdan chiqdi”, “ko‘z ochib ko‘rgan”; “tie the knot”, “match made in heaven”, “lovebirds”), **o‘lim** (“dunyodan ketdi”, “dunyodan o‘tdi”, “dunyodan ko‘z yumdi”, “dunyodan ko‘z yumdi”, “o‘tib ketdi”, “jahondan ketdi”, “jahondan o‘tdi”, “jonidan umidini uzdi”, “so‘nggi nafasini oldi”; “at death’s door”, “bite the dust”, “dead and buried”, “dead as a doornail”, “pass away”, “kick the bucket”), **tug‘ilish** (“dunyoga keldi”, “yorug‘ dunyoni ko‘rdi”; “born on the Fourth of July”, “come out of a mother’s body”, “come into the world”, “come into the picture”) kabi ma’nolar ham frazeologizmlarning pragmatik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, turli tizimli tillarda frazeologik birliklar orqali so‘zlashuv jarayonida turli pragmatik munosabatlar ifodalanishi mumkin va bunday munosabatlarni chuqur o‘rganish tilshunoslar oldidagi muhim masalalardan biri bo‘lib kolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. M. Hakimov “O‘zbek pragmalingvistik asoslari”. “Akademnashr” nashriyoti. Toshkent-2013
2. Z. Xolmanova. “Tilshunoslik nazariyasi”. Toshkent-2020.
3. Sh. Safarov. “Kognitiv tilshunoslik”. “Sangzor nashriyoti”, Jizzax-2006.
4. R. Rasulov. “Umumiy tilshunoslik”. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent-2007.
5. Z. Maksetova. “Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning tasnifi” – ilmiy maqola. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jurnali